



HABIBULLO OXUND (HABIBIY) DEVONINING QO‘LYOZMA MANBALARI VA MATNIY XUSUSIYATLARI

Muallif: Gulmira Kentayeva ¹

Affiliyatsiya: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti II bosqich tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205738>

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan shoir Habibullo Oxund (Habibiy) devonining qo‘lyozma manbalari va matniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Habibiy o‘z davrining boy madaniy hayotiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, uning adabiy merosi hozirga qadar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida fondida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalar asosida olib borildi.

Kalit so‘zlar: Habibullo Oxund, Habibiy, devon, qo‘lyozma manbalar, matnshunoslik, ilmiy tavsif, Xorazm adabiy muhiti, bayoz, tazkira, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi adabiyot.

Xorazm tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, xususan, Muhammad Rahimxon II davrida Xorazmda adabiyot va ilm-ma‘rifat yuksak darajada taraqqiy etib, ko‘plab iste‘dodli shoirlar yetishib chiqqan. Shu bilan birga, mazkur davrga mansub bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan bir qator shoirlar ham mavjud. Xiva xonligi adabiy maydoni eng sermahsul ijod namunalari yaratilgan adabiyot o‘chog‘i bo‘lib xizmat qildi. Bunda esa shoh va shoir, ilm homiysi Muhammad Rahimxon II Feruzning o‘rni beqiyosdir. Bayoniy buni shunday ta‘rif etadi: Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlari ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur erdi va sipohiyar va to‘ralarni ham kitobxonliq etarga targ‘ib etar edilar. Bas, hamma kitobxon bo‘ldilar [3:42].

Ana shunday ijodkorlar sirasiga Habibullo Oxund, Habibiy taxallusi bilan ijod qilgan xorazmlik shoir ham kiradi. Shoir ijodiga oid asarlar qo‘lyozma manbalarda saqlanib kelgan bo‘lib, uning adabiy merosi tazkiralari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mavjud qo‘lyozma nusxalar asosida aniqlanib, ilmiy jihatdan o‘rganildi.

Bundan tashqari, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid ijodkorlarga bag‘ishlangan bayoz va majmualar tarkibida ham Habib ijodiga mansub she‘riy namunalari uchrashi aniqlanib, ular tahlil qilindi. Adabiy yozma yodgorliklarni o‘rganishda qo‘lyozma asarlarni ilmiy tavsiflash muhim o‘rin tutadi. Tavsiflarni yaratish esa amaliy matnshunoslik sohasiga oiddir. Chunki “matn ustida ishlash qo‘lyozmaning tashqi

belgilarini o'rganishdan boshlanadi. Qo'lyozma tashqi belgilar esa uning ilmiy tavsifida o'z aksini topadi [6:85].

Habib qalamiga mansub devon qo'lyozmalarini o'rganish jarayonida olib borilgan tadqiqotlar natijasida mazkur ijodkor qalamiga mansub bir yaxlit devon, shuningdek, bayozlar tarkibida saqlanib kelgan boshqa adabiy meros namunalari aniqlanib, uning nusxalari borligi aniqlandi.

Habibiy devonining hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 946-inventar raqamli qo'lyozma nusxasi o'rganilib, mazkur devon haqida ilmiy tavsif berildi. Mazkur devon haqida ma'lumot berilar ekan, uning muallifi Habib, ya'ni Habibullo Oxund XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod qilgan shoir sifatida taqdim etilgan. Ushbu davrda shoirning bir yaxlit devoni shakllangan bo'lib, u XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijodiy faoliyatini aks ettiradi.

Habib devoni – Xiva adabiy muhiti vakili, sho'ir va olim Habibullo Oxund (Habib)ning turli janrlarda yaratilgan badiiy ijod namunalari jamlagan asar hisoblanadi. Asarning qo'lyozma nusxalari uning tarixi, tarqalishi va matniy xususiyatlarini o'rganish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Qo'lyozma nusxalarining ilmiy tavsifi nafaqat asarning asl matnini aniqlash, balki uning nashr tarixi, xat va til o'ziga xosliklarini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi orqali asarning turli davrlardagi nusxalaridagi o'zgarishlar, qo'shimchalar yoki qisqartirishlar aniqlanadi. Bir necha qo'lyozma asosida asarning ilmiy-tanqidiy yoki yig'ma matnini tuzish uchun, boshlab, tayanch nusxani, ya'ni tuzilajak ilmiy matn uchun asos bo'luvchi qo'lyozma nusxani saylab olmoq kerak bo'ladi. "Tayanch nusxani saylab olishda qo'lyozmaning quyidagi belgilariga e'tibor qaratilmog'i kerak:

Birinchi, asar qo'lyozmasining boshqa nusxalariga qaraganda to'liqligi, qanday saqlanganligi inobatga olinadi. Ko'pincha eski, qadimiy qo'lyozma yaxshi saqlanmagan bo'lishi mumkin, har qanday holatda ham uning to'liqligi e'tiborga olinadi;

Ikkinchi, asar qo'lyozmaning ko'chirilgan davri, uning qadimiyligiga e'tibor qaratiladi. Bor bo'lsa, muallif yashagan davrda yoki shunga yaqin chog'larda ko'chirilgani olinadi. Bu esa Habib ijodining tarixiy kontekstini tushunishga, shuningdek, matnni aniq, to'liq va ishonchli shaklda qayta tiklashga xizmat qiladi. Ushbu bo'limda avvalo mavjud qo'lyozma nusxalari haqida umumiy ma'lumot berilib, keyin ularning xususiyatlari, holati, hajmi va ilmiy ahamiyati batafsil tahlil qilinadi"[5:169].

Habibullo Oxund (Habib) devoni Xiva adabiy muhitining nodir qo'lyozma yodgorliklaridan biri bo'lib, uning bir nechta nusxalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fondida saqlanadi. Xususan, devonning №946, 1142 va 6677 [4:59v, 857v, 6varaq] raqamli qo'lyozma nusxalari mavjudligi ma'lum. Ushbu nusxalar asarning turli davrlarda yozilgan va tarqatilgan shakllarini aks ettirib, uning matniy tarixini tadqiq qilish uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Qo'lyozma nusxalari nafaqat asarning mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'rganishda, balki ularning yozilgan davri, qo'l yozuvi, sahifalash, qog'oz va siyoh turi kabi jihatlarni ilmiy tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, nusxalar orasidagi tafovutlar va qo'shimchalar devon matnining shakllanish jarayoni hamda shoir ijodining tarixiy konteksti haqida ma'lumot beradi. Shu sababli, devonning har

bir qo'lyozma nusxasi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi va uning to'liq matniy tahlili uchun asosiy manba hisoblanadi.

N^o946 raqamli qo'lyozma - Habib devonining qo'lyozmalari ichida bu qo'lyozma to'liqligi jihatidan alohida ajralib turadi. Boshqa qo'lyozmalar bilan qiyoslanganda, u ancha mukammal holatga ega ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Xususan, Habib devonidagi asosiy g'azallar, muhammas, qasidalar mazkur qo'lyozmada to'liqroq variantda berilgan. "Qo'lyozmaning birinchi varag'i الرَّحْمٰنِ اللّٰهِ بِسْمِ الرَّحِيْمِ (basmala) bilan boshlanadi. Shundan so'ng حبيب ديوان "Devon-i Habib" yozuvi keltirilgan bo'lib, ushbu yozuv qizil siyohda bitilgan"[4:1].

Qo'lyozma sarg'ish rangli qog'ozga, qora siyoh bilan nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, sarlavhalar qizil siyohda bitilgan. Har bir sahifa ikki ustun shaklida joylashtirilgan, satrlar tartibli tarzda joylashgan. Qo'lyozmaning ayrim joylari biroz xiralashgan bo'lsa-da, matnga jiddiy zarar yetmagan. Varaqlarining chetlari esa to'liq holatda bizgacha yetib kelgan. Ba'zi joylarda o'chib ketgan so'zlar uchraydi. Ayrim varaqlarda keyinchalik boshqa kishilar tomonidan qo'shimcha so'z va izohlar kiritilgani ehtimoldan xoli emas.

Tadqiqot jarayonida Habib ijodiga oid adabiy meros namunalarining boshqa qo'lyozmalarda ham saqlanib kelgani aniqlandi. Jumladan, 1142, 6677 inventar raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozmalarda shoir ijodiga mansub she'riy asarlar mavjud. Mazkur qo'lyozmalar bayoz shaklida bo'lib, ularda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida, xususan, Muhammad Rahimxon II davrida ijod qilgan shoirlar qatori Habib ijodiga ham alohida to'xtalib o'tilgan hamda uning adabiy merosi ushbu bayozlar tarkibida keltirilgan. Habib bilan zamondosh bo'lgan ijodkorlar qatori uning biografiyasi va adabiy merosini o'rganish jarayonida XIX-XX asrlar chegarasidagi Xorazm adabiy muhitiga oid tazkiralar, davrning boshqa adabiy asarlari hamda qo'lyozma manbalar atroflicha tadqiq etildi. Ushbu tazkiralar va qo'lyozmalar asosida Xorazm adabiy muhitining XIX asr oxiri - XX asr boshlariga oid ko'plab manbalarida Habib haqida qator muhim ma'lumotlar berilgani, shuningdek, uning adabiy merosidan ayrim parchalar keltirilgani aniqlandi.

Jumladan, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 29-raqamli toshbosma nusxa - Ahmadjon Tabibiy tomonidan tuzilgan, "Majmua-i shuaro'i payravi Feruzshohiy" majmuada ham mazkur davr shoirlari qatori Habib ijodidan namunalar berilgani qayd etildi [7:1640].

Tabibiyning "Majmuai si shuaro i payravi Feruzshohiy" 134 tazkirasi Feruz tashabbusi bilan 1908-1909 yillarda yaratilgan. 29 toshbosma nusxa 1640 betdan iborat bo'lib, 11-betidan Feruzning "Zihi bordur zuhurinng'a azal birla abad paydo..." radifli g'azali berilgan, so'ng boshqa shoirlarning payrav g'azallari bilan asar davom etgan. "Tazkira debocha, g'azallarni o'z ichiga oluvchi asosiy qism va xotimadan iborat. Asar debochasi, shoirlar haqidagi ma'lumotlar hamda asar xotimasi she'riy tarzda berilgan bo'lib, masnaviy yo'lida qofiyalangan. Tazkirada Feruzning 101 g'azali va ularga bitilgan payravlar jamlangan bo'lib, jami 3331 g'azalni tashkil etadi. Barcha namunalari to'liq berilgan [8:23].

Habibiy qalamiga mansub devon qo'lyozmasining asosiy nusxasi, shuningdek, unga yondosh nusxalar hamda bayozlar tarkibida keltirilgan adabiy meros namunalari o'rganilishi natijasida qator muhim ma'lumotlar aniqlandi. Tadqiqot jarayonida asosiy devon nusxasida mavjud bo'lmagan ayrim asarlar boshqa nusxalar

va bayozlarda saqlanib kelgani ma'lum bo'lib, ular shoir ijodining ayrim jihatlarini to'ldiruvchi manbalar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur manbalarni o'zaro qiyosiy tahlil qilish asosida Habibiy ijodiga doir yakuniy ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Har bir aniqlangan qo'lyozma nusxa tadqiqotda muhim manba vazifasini bajargan bo'lib, ularning ilmiy tavsifini berishda qo'lyozmalarning kelib chiqishi, tuzilishi va matniy xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishga alohida e'tibor qaratilishi kerakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobojon Tarroh – Xodim. Xorazm navozandalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1994. – B.192.
2. Matkarimova S. Tabibiy tazkiranavis. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B. 96.
3. Махмудова Д. С. XIX аср Хива адабий муҳити // Образование, наука и инновационные идеи в мире. 2024. № 51. – Часть 2. –120 с.
4. O'zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozmalar fondi, № 946, 1142, 6677.
5. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent, 2017. – 216 b.
6. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Fan, 2019. – B.123.
7. Tabibiy. Majmua-i shuaro-i payravi Feruzshohiy. – O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, 29 toshbosma nusxa – B.1640.
8. Ҳожиева И. Хоразм миллий маънавий мероси дурдоналари. – Toshkent: Турон замин зиё, 2016. – B. 110.